

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ARIPOVA KAMOLA YUSUPOVNA

**CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINING INGLIZ
TILIGA TARJIMASIDA LEKSIK STILISTIK VOSITALARNING
IFODALANISHI (KRISTOFER FORT TARJIMASI ASOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Aripova Kamola Yusupovna

Cho'lonning "Kecha va Kunduz" romanining ingliz tiliga tarjimasida leksik stilistik vositalarning ifodalanishi (Kristofer Fort tarjimasi asosida).....3

Aripova Kamola Yusupovna

Reflection of lexical stylistic devices in the English translation of Cholpon's novel "Night and Day" (based on the translation by Christopher Fort)26

Камола Юсуповна Арипова

Отражение лексико-стилистических средств в английском переводе романа Чулпана "Ночь и день" (на основе перевода Кристофера Форты).....52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ARIPOVA KAMOLA YUSUPOVNA

**O‘LPO‘NING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANINING INGLIZ
TILIGA TARJIMASIDA LEKSIK-STILISTIK VOSITALARNING
IFODALANISHI (KRISTOFER FORT TARJIMASI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil1511 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilida (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djusupov Nursulton Maxanbet uli
filologiya fanlari doktori

Asqarova Shaxnoza Kamoliddinovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "19" dekabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-21; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, 3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (135 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.X.Shirinova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rais o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

M.G.Rabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jadal sur'atlarda kechayotgan bugungi kunimizda dunyo xalqlari o'rtasida turli sohalarda o'zaro aloqa-almashinuv jarayoni amalga oshmoqda. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarining rivoji xalqlar, millatlarning madaniyati o'rtasida yo'lga qo'yilgan munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir. Jahon xalqlari hamjamiyati bilan mustahkam do'stlik, hamkorlik o'rnatish uchun har qanday xalq o'zga millatlarning tili, madaniyati, san'ati, milliy adabiyotini o'rganishga harakat qiladi.

Dunyo bo'ylab deyarli barcha mamlakatlarda ularning milliy tillariga tarjima qilinayotgan turli matnlar, ilmiy adabiyotlar qatorida badiiy asarlarning ham borligi quvonarli holat bo'lib, bu jahon xalqlari o'rtasida bir-birining tiliga, ma'naviy boyligi va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqish qay darajada kuchli ekanligiga dalildir. Bugungi kunga qadar o'zbek adabiyotining bir qator yirik namunalari dunyoning ko'plab tillarida nashr qilingan va qilinmoqda. Xususan, Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va Kunduz" romani ham ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan bo'lib, chet ellik kitobxonlarning e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Asar ingliz tiliga amerikalik olim Kristofer Fort tomonidan o'girilgan bo'lib, 2019-yil yanvar oyida Amerikada nashrdan chiqdi. Asar tarjimasining nashrga topshirilganligi munosabati bilan 2018-yil avgust oyida Toshkent shahrida yirik ilmiy konferensiya o'tkazilib, bu haqida Amerika nashrlarida ham so'z yuritildi¹. Londonda joylashgan O'zbekiston elchixonasida Britaniya-O'zbekiston do'stlik jamiyati tomonidan 2020-yil 17-yanvarda o'tkazilgan anjumanda Cho'lponning ushbu asari taqdimoti bo'lib o'tdi². Tadbirda Britaniyaning mashhur yozuvchi-shoirlari, ilm-fan va madaniyat vakillari ishtirok etganidan ham bilib olish mumkinki, Cho'lpon ijodi, xususan, o'zbek adabiyotining durdonalaridan bo'lgan "Kecha va Kunduz" asari chet ellik ilmiy qatlam vakillarini ham befarq qoldirmaydi.

O'zbek xalqining yaqin o'tmishini haqqoniy ochib bergan, milliy an'analar va qadriyatlarimizni o'zida badiiy tarzda chiroyli aks ettirgan, elimizning millat, xalq sifatidagi ajoyib fazilatlarini ardoqlab yozilgan "Kecha va Kunduz" romani o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan bo'lib, ulug' ijodkor Abdulhamid Cho'lponning xalqimizga qilgan buyuk ma'naviy tuhfasidir, desak xato bo'lmaydi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, amalga oshirilgan turli islohotlar qatorida xorijiy tillarni o'rganish sohasiga ham alohida e'tibor qaratilib, "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish"³ ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi hamda mamlakatimiz xalqaro maydonda tobora faolroq o'rin egallayotgani, xorijiy mamlakatlar bilan barcha sohalardagi hamkorlik aloqalarini kengaytirayotgani chet tillarini o'rganishga

¹ <https://lsa.umich.edu/slavic/news-events/all-news/search-news/phd-candidate-christopher-fort-in-uzbekistan.html>

² <http://m.xabar.uz/madaniyat/amazona-faol-sotilayotgan-kecha>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>

bo‘lgan ehtiyoj, adekvat tarjimalarni amalga oshirish hamda buning uchun tarjimashunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish va shu orqali yetuk tarjimonlarni tayyorlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 10-oktyabrdagi 816-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarjima turlari orasida eng murakkab tur sifatida e’tirof etiluvchi badiiy tarjima hamda unda uchraydigan lingvistik va ekstralingvistik masalalarni tadqiq etishga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, jahon tarjimashunoslik maktablarida bu muammolarga doir ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan.

Xususan, xorijlik olimlardan P.Skave, A.Barselona, Z.Koveses, G.Radden, L.Venuti, M.Anani, P.Nyumark, K.Liu, J.Vinay⁴ va boshqalar badiiy tarjima jarayonida kuzatiladigan muammolar, uning konnotativ ma’nolarini tushunish va

⁴ Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 311 p.; Anani M. Literary Translation (in Arabic). Libraire du Liban. – Lebanon, 1997.; Venuti L. The Translation Studies Reader. – London and New York: Routledge, 2000/2004.; Kovecs G. Metaphors of Anger, Pride and Love. – Amsterdam: Benjamins, 1986.; Radden G. & Kovecses Z. Towards a theory of metonymy // In K.Panther & G.Radden (Ed), Metonymy in Language and Thought. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999.; Barcelona A. The Case for a Metonymic Basis of Pragmatic Inferencing: evidence from Jokes and Funny anecdotes // In Panther K.U and L.L.Thornburg, (Eds), Metonymy and Pragmatic Inferencing. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003.; Vinay J.P., & Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English A Methodology for Translation. – Amsterdam, Philadelphia, 1995.

chet tilidagi matnlarda aks ettirish yo‘llarini izlash ustida ilmiy faoliyat yuritgan bo‘lib, ular erishgan natijalar tarjima sohasi rivojida muhim rol o‘ynagan.

Badiiy matnlarda qo‘llangan uslubiy-tasviriy vositalar, ko‘chma ma’noli birliklar hamda matnning lingvokulturologik jihatlarini tarjimada to‘g‘ri aks ettirishga doir bir qancha ishlar yurtimiz olimlari tomonidan ham bajarilgan. Bu o‘rinda badiiy tarjima jarayonini tadqiq etgan olimlardan G‘.Salomov, Z.Bazarov, shuningdek, J.Sharipov, N.Komilov, I.G‘ofurov, M.Xolbekov, D.Xoshimova, U.Yo‘ldoshevlarning erishgan natijalarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim⁵.

Nomi yuqorida keltirib o‘tilgan tarjimashunos olimlar, asosan, badiiy matnlar tarjimasi jarayonini tadqiq etib, bu jarayonda duch kelinadigan muammolarni yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, Z.Bazarov A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalari misolida o‘z dissertatsiya ishida badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash muammolarining aks etishiga doir masalalarni tadqiq etgan bo‘lsa, filolog olim, tarjimon Ulug‘bek Yo‘ldoshev o‘zining ilmiy maqolalari, asarlari orqali o‘zbek xalq latifalarida qo‘llangan uslubiy vositalarni ingliz tiliga tarjima matnida aks ettirish masalalari va latifalarning tarjimadagi lingvokulturologik aspektini tadqiq etgan⁶. Biroq badiiy matnlarda qo‘llaniluvchi metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag‘a kabi leksik stilistik birliklarining boshqa tillarga tarjima matnida aks etishi masalalari, ularni tarjima qilish jarayonida qo‘llanuvchi uslub va strategiyalarni belgilash doirasida yaxlit monografik tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universitetining “Turli tizimli tillarning tipologik va chog‘ishtirma xususiyatlar” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanida qo‘llanilgan leksik stilistik vositalarning ingliz tiliga tarjimasi masalalarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

badiiy tarjima konsepsiyasini o‘rganishda yozuvchi va tarjimon usul hamda uslublarining uyg‘unligi omillarini aniqlash;

badiiy tarjimada metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag‘a kabi leksik stilistik vositalarning milliy-madaniy va pragmatik muammolarini tahlil qilish;

⁵ Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 93 b.; Bazarov Z.M. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash muammolari (A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalari misolida): Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 22 b.; Xolbekov M.N. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 112 b.; Xoshimova D. “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 74 b.; Sharipova A. Stilistik sinonimlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 22 b.; Shirinova R. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 26 b.; Teshaboyeva Z. “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2017. – 20 b.; Yo‘ldoshev U. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 17 b.

⁶ Yo‘ldoshev U. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 17 b.

o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida badiiy matnda qo'llanilgan stilistik vositalarning lingvistik jihatlarini qayta yaratishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

o'zbek mentalitetiga xos badiiy matnlardagi stilistik vositalarni jahon tillariga adekvat tarjima qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti qilib Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romani va uning Kristofer Fort tomonidan ingliz tiliga o'girilgan tarjimasidagi hamda aslyatdagi leksik-stilistik vositalar tanlangan.

Tadqiqotni predmetini esa Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va Kunduz" romanining aslyat hamda tarjima matnlarida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a kabi leksik-stilistik vositalarda milliy-madaniy xususiyatlarining tarjimada berilish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida qiyosiy-chog'ishtirma tahlil metodi, shuningdek, deskriptiv, kontekstual, kross-madaniy va komponent tahlil metodlaridan ushbu dissertatsiya ishi mavzusini yoritishda foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy tarjima konsepsiyasida yozuvchi va tarjimon usul hamda uslublarining uyg'unligini ta'minlash omillari tarjimonning asar mazmuni, janri va muallif uslubiga moslashgan holda matndagi milliy-madaniy bo'yoqdorlikni saqlash uchun so'zma-so'z tarjima, adekvat tarjima, erkin tarjima, stilistik moslashtirish, ekvivalent almashtirish, obrazlilik kabi tarjima usullarini muayyan vaziyatlarda qollay bilish kompetensiyasiga egaligi orqali aniqlangan;

badiiy tarjimada metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag'a kabi uslubiy vositalarning pragmatik muammolari muallifning kommunikativ maqsadi, chet tili sohibining madaniy moslashuvi, tildagi stilistik qatlamlarini mos pragmatik ma'no orqali ifodalash, hissiy-emotsional bo'yoqdorlikni va madaniy kodni yetkazish vazifalari asosida dalillangan;

o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida badiiy matnda qo'llanilgan stilistik vositalarning lingvistik jihatlarini o'girishning o'ziga xos xususiyatlari o'zbek tilida stilistik vositalar xalqning dunyoqarashi hamda kundalik turmush tarzi natijasida hosil bo'lgan obrazlarga suyanadi, ingliz tilida esa mentalitet ongidagi obraz universal va psixologik-mavhum tushunchalar tarzida qayta yaratilishiga ko'ra asoslangan;

o'zbek mentalitetiga xos badiiy matnlarning stilistik vositalarini jahon tillariga adekvat tarjima qilish boyicha kompleks yondashuvdan iborat tavsiyalar muallif tilini muqobil tarzda qayta tiklash, tanlangan so'zning nafaqat lug'at ekvivalenti, balki uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan nutq holatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, so'zma-so'z tarjimadan qochish, adekvat tarjimaning imkoni bo'lmaganda so'zning transliteratsiyasi, izoh berishdan unumli foydalanish kabi tarjima usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy asarning aslyat matnida qo'llangan uslubiy vositalarning konnotativ ma'nosi, uslubiy bo'yog'ini tarjimada aks ettirish uchun manba matnida qo'llanmagan leksik birliklarning qo'shimcha ma'nolaridan foydalanish usullari taklif etilgan;

asardagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag‘a kabi stilistik vositalarning tarjimada ifodalanish usullarining chog‘ishtirma tahlili tizimlashtirilgan;

o‘zbek tilidagi asarning inglizcha tarjimasida ekvivalent tarjima, ma‘nosiga ko‘ra, funksional almashtirish va etnomadaniy izoh kabi usullarning afzalliklari hamda kamchiliklari ochib berilgan;

leksik-stilistik vositalarning tarjima jarayonida tushirib qoldiririlishi, badiiy estetik didning yetishmasligi kabi holatlar ikki xalq mentalitetidagi madaniy tafovutlar va tarjimon strategiyasining natijasi ekanligi aniqlangan;

metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag‘a kabi stilistik vositalarni tarjima matnida ifodalashga doir mavjud uslub hamda usullar umumlashtirilgan va oliy o‘quv yurtlarida tarjimonlarni o‘qitishda foydalanish boyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida ishonchli manbalardan olingan ilmiy materiallardan foydalanilgani, olingan natijalarning vakolatli organlar tasdig‘idan o‘tgani, o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalaning aniq qo‘yilgani, uni hal qilishga doir taklif va tavsiyalarning amaliy ish faoliyatiga olib kirilgani, ilmiy ish jarayonida qat‘iy xulosalar yasalgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati leksik stilistik vositalarning badiiy tarjimada milliy koloritini qayta yaratish, hozirgi o‘zbek nasriy asarlari tarjimasini tamoyillari va uning xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarni hal etishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjimon va filolog tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini, jumladan, “Badiiy matn tarjimasini”, “Yozma tarjima”, “Stilistika va matn tahlili” kabilarni o‘qitishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, tarjimaning lingvostilistik aspektlari bo‘yicha izlanish olib boradigan tadqiqotchilar uchun muhimligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tarjimashunoslik, leksikologiya sohalarida yaratiladigan turli xil lug‘atlarni tuzishda manba vazifasini o‘tashida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanining ingliz tiliga tarjimasida leksik stilistik vositalarning ifodalanishi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek mentalitetiga xos badiiy matnlarning stilistik vositalarini jahon tillariga adekvat tarjima qilish boyicha kompleks yondashuvdan iborat tavsiyalar muallif tilini adekvat qayta tiklash, tanlangan so‘zning nafaqat lug‘at ekvivalenti, balki uning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan nutq holatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, so‘zma-so‘z tarjimadan qochish, adekvat tarjimaning imkoni bo‘lmaganda so‘zning transliteratsiyasi, izoh berishdan unumli foydalanish kabi tarjima usullari ishlab chiqilganga oid ma‘lumotlardan O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan “English grammar in tables”, “Learn easily (course 1, 2, 3)” nomli o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishida hamda Akademiya huzuridagi Malaka oshirish markazida diniy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga

oshirishda diniy-ma'rifiy soha xodimlari oldida turgan dolzarb vazifalar" mavzusidagi malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari va tezislarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 18-martdagi 02-02/844-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tarjima va tarjimon uslubi hamda strategiyalari bo'yicha ma'lumotlar o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga, ma'ruza matnlarni tayyorlashga xizmat qilgan;

badiiy tarjimada metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag'a kabi uslubiy vositalarning pragmatik muammolari muallifining kommunikativ maqsadi, chet tili sohibining madaniy moslashuvi, tildagi stilistik qatlamlarini mos pragmatik vosita orqali ifodalash, hissiy-emotsional bo'yoqdorlikni va madaniy kodni yetkazish vazifalariga doir xulosalardan diniy-ma'rifiy sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqot markazlari uchun O'zbekiston allomalarining jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasini keng yoritishga qaratilgan materiallar, kitob va risolalarni tayyorlashda hamda boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2024-yil 28-avgustdagi 01-07/103-sonli ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnlarda uslubiy vositalarning pragmatik vazifalarini ishlab chiqishga erishilgan;

o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida badiiy matnda qo'llanilgan stilistik vositalar va frazeologik birliklarning lingvistik jihatlarini o'girishning o'ziga xos xususiyatlari o'zbek tilida stilistik vositalar xalqning dunyoqarashi hamda kundalik turmush tarzi natijasida hosil bo'lgan obrazlarga suyanadi, ingliz tilida esa mentalitet ongidagi obraz universal va psixologik-mavhum tushunchalar tarzida qayta yaratilishiga doir xulosa hamda ilmiy natijalaridan "Oydin hayot" ko'rsatuvining ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 12-dekabrda 06-28-865-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuv ssenariysi stilistik vositalar va frazeologik birliklarning lingvistik jihatlarini ikki til misolida tarjima qilish bo'yicha ilmiy-nazariy materiallar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 22 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 18 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib 156 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan

va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Badiiy tarjimaning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** o‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimalar, badiiy tarjima konsepsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy tarjimada pragmatik masalalarning aks etishi muammosini nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Tarjima amaliyotini tadqiq etish borasida jahon tilshunos-tarjimashunos olimlari tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Bir qancha olimlarning fikrlarini keltirib o‘tamiz: ispan tarjimashunos olimasi Anna Mariya Rojoning fikricha, tarjima – bir tildagi og‘zaki matnni ikkinchi tildagi og‘zaki matnga, bir tildagi yozma matnni boshqa tildagi yozma matnga aylantirishdan iborat bo‘lgan faoliyat turidir. A.Rojoning bu fikrlari tarjima faoliyatiga nisbatan keltirilishi mumkin bo‘lgan eng qisqa, lo‘nda va umumiy ta‘rifdir”. P.Nyumark tarjimini muallifga tegishli bo‘lgan matnni u nazarda tutgan usulda chet tilga o‘girish jarayoni sifatida ko‘radi. O‘ylaymizki, P.Nyumarkning ushbu fikrlari badiiy asarlarni tarjima qilishga nisbatan ishlatilsa, juda to‘g‘ri bo‘ladi. Buning sababini esa badiiy adabiyot namunalari emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik, badiiy unsurlar, kitobxonga ta‘sir kuchi, muallif uslubi va konnotativ tagma‘nolarning mavjudligi orqali izohlash mumkin.

Tarjimashunoslardan Yu.Nayda hamda S.Taber aytadiki, badiiy tarjima jarayoni, avvalo, mazmun, undan so‘ng uslubiy jihatlarni e‘tiborga olib, tarjima matnida ularning ekvivalentini ifodalashdan iborat amaliyotdir⁷. Darhaqiqat, badiiy asarlar tarjimasida mutaxassis asliyat matnida aks etgan ma‘noning ekvivalentini tarjima matniga ko‘chirish bilangina cheklanmay, undagi badiiy bo‘yoq, estetik ta‘sir xossasini ham olib o‘tishga intilishi kerak. Tarjima nazariyasini tadqiq etgan olimlardan L.Venuti aytadiki, badiiy asarni so‘zma-so‘z tarjima qilish uni asliyat matniga yaqinlashtirib qo‘ymaydi. Chunki badiiy matnning asosi faqat leksik birliklardangina iborat emas, undagi konnotativ ma‘nolar matn mazmunini ochishda muhim o‘rin egallaydi. Shu tufayli badiiy matnlarni turli talqinlarda tarjima qilishga urinish lozim. Asliyat matnining tarjimadagi ekvivalentini muvaffaqiyatli tarzda ifodalash uchun matnga erkin yondashish, undagi stilistik vositalarni har tomonlama o‘rganish kerak. Bu kabi qarashlarning paydo bo‘lishi badiiy tarjima jarayonining alohida e‘tibor bilan o‘rganishni talab etuvchi soha ekaniga dalildir⁸. R.Bell o‘zining “Tarjima amaliyoti va tarjima jarayoni” asarida biror badiiy matnni barcha xususiyatlari bilan birgalikda boshqa tilga ko‘chirib o‘tkaza olish yaxshi tarjimonning belgilaridan biri ekanligini yozadi⁹. Ularning fikrini ma‘qullagan holda aytamizki, adabiyot tarjimoni – nafaqat tillarni yaxshi o‘zlashtirgan olim, balki badiiy ijodkor ham bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“1.1. O‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimalar hususida”** deb nomlangan faslida o‘zbek tarjimashunoslik nazariyasi

⁷ Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. – United Bible Society, 1969. – P. 23.

⁸ Venuti L. The Translation Studies Reader. – London and New York: Routledge, 2000. – P. 36.

⁹ Bell R. Translation and Translating. – London and New York: Longman, 1991. – P. 86.

va tarjima amaliyotining rivojlanishi G‘aybulla Salomov nomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u tarjima faoliyatini shunday ta’riflaydi: “tarjimaning asosiy xususiyati – ma’noni saqlab qolgan holda uni boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishdan iborat bo‘lgan so‘z san’ati, ijodiy faoliyat ekanligida”¹⁰. Chindan ham, tarjima amaliyotining ahamiyati beqiyos ekanligini u duyodagi barcha sohalari qamrab olishiga ko‘ra belgilasak bo‘ladi. Masalan, bir xalqning badiiy adabiyotiga tegishli bo‘lgan asarlar tarjima orqali boshqa xalqlarga ham tushunarli bo‘ladi. Nafaqat badiiy ijod namunalari, balki dunyo olimlari tomonidan ilm-fan, texnologiya sohasida erishilgan yutuqlarni o‘rganish borasida ham tarjimashunoslikning ahamiyati buyukdir. Albatta, bu holatda to‘g‘ri va sifatli tarjimaning o‘rnini ham unutmazlik lozim. G‘.Salomovning so‘zlariga ko‘ra, bu jarayonda tarjimon – ijodkor ham hisoblanadi. G‘.Salomov o‘zining “Tarjima tashvishlari” asarida shunday deydi: “Tarjima faoliyati natijasida jamiyatda yangi munosabatlar o‘rnatiladi, yangicha qarashlar paydo bo‘ladi”¹¹. Darhaqiqat, badiiy adabiyot tarixidan ham ma’lumki, jahon adabiyoti namunalari boshqa tillarga tarjima qilinishi sababli adabiyotda yangi janrlar, yangicha oqimlar, g‘oyaviy yo‘nalishlar yuzaga kelgan.

Taniqli tarjimashunos olim Qudrat Musayevning so‘zlariga ko‘ra, tarjima – bir tildagi matnning mazmuniy va shakliy xossalarini o‘zgartirmagan holda, uni boshqa tilning ifoda vositalari orqali qayta yaratish jarayoni hisoblanadi¹². Haqiqatan, “yaratish jarayoni” mahsuli bo‘lgan tarjima endi asarning muallifiga emas, uni boshqa tilga o‘g‘irgan tarjimonga tegishli ijodiy ish sanaladi. Tarjimon bir tildagi asarni boshqa tilga olib o‘tishda o‘z ijodiy qobiliyatlarini ishga soladi, xuddi asar muallifi singari u ham tarjimaga o‘z yondashuvi, ifoda tili, uslubini singdiradi Qudrat Musayev o‘z so‘zining davomida ushbu fikrlarni keltirib o‘tadi: “Turli xalqlar adabiyoti namunalari bir-biriga ta’sir o‘tkazishi, o‘zaro aloqaga kirishishi, albatta, tarjima jarayoni orqali sodir bo‘ladi. Tarjima tufayli o‘quvchilar o‘zlari bilmagan tillarda yozilgan nodir asarlarni ham o‘qib, ularning badiiy ta’sir kuchidan bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘ladilar. Tarjima asarlarni o‘qigan kitobxonlar estetik zavqni his etadilar, shuningdek, ularning badiiy didlari yuksalib, dunyoqarashlari kengayadi”¹³. Agar biron ijod namunasi, u badiiy jihatdan qanchalar yuksak bo‘lmasin, boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyo kitobxonlariga yetkazib berilmasa, u bir xalq adabiyoti ichida cheklanib qoladi, o‘ziga munosib o‘rinni egallay olmay qoladi. “Muallif tomonidan yaratilgan ilmiy yoki badiiy asar, biror nutq parchasi, turli hujjatlar, ish qog‘ozlari, ma’lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirib o‘tkazish, ularning boshqa tilda tushunarli bo‘lishini ta’minlash tarjima jarayonining asosini tashkil qiladi”, – deydi tarjimashunos olim I.G‘afurov¹⁴. Q.Musayev hamda I.G‘afurovning fikriga umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin-ki, tarjima – bir tildagi og‘zaki

¹⁰ Salomov F. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 93.

¹¹ Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983. – B. 20.

¹² Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 8.

¹³ O‘sha asar. – B. 15.

¹⁴ G‘afurov I. Tarjimon mutaxassisligiga kirish. – Toshkent: Mehridaryo, 2008. – B. 5.

yoki yozma matnni ikkinchi bir tilga o'g'irish jarayoni bo'lib, bunda matnning leksik, semantik, lingvokulturologik, stilistik xususiyatlari hisobga olinadi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namunalarini xorijiy tillarga, xususan, ingliz tiliga o'g'irish jarayoni oson kechmagani aniq. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ingliz tiliga tarjima qilishda I.To'xtasinov boshchiligidagi bir guruh tarjimonlar uzoq muddat davomida mehnat qildi. Tarjimani nashrga tayyorlash ishlarida xorijlik tarjimonlar, muharrirlar bilan hamkorlik qilindi. Romanning tarjima nusxasi matniga muharrirlik qilish uchun chet ellik mutaxassislardan amerikalik olim Kristin Smart taklif etildi. I.To'xtasinov boshchiligidagi tarjimonlar guruhi 2012-yildan 2014-yilgacha bo'lgan qisqagina muddat ichida o'zbek adabiyoti durdonalaridan bo'lmish 18 ta asarni ingliz tiliga bevosita usulda tarjima qildilar. Ularning orasida Abdulla Qodiriyning yana bir mashhur romani "Mehrobdan chayon" ("Scorpion from Altar"), Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" ("Starry Nights"), O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" ("Affairs of Life"), Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" ("The Treasure of Ulugbek), Tohir Malikning "Shaytanat" ("Devildom"), Cho'lponning "Kecha va Kunduz" ("Night and Day"), G'afur G'ulomning "Shum bola" ("A Naughty Boy") qissasi kabi mashhur asarlar bor edi. Bu ishlarni o'zbek hamda ingliz tillaridagi badiiy asarlarni bevosita tarjima qilish ishlariga debocha bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

"Kecha va Kunduz" asarining ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinishi amerikalik olim Kristofer Fort nomi bilan bog'liq. K.Fort haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, yosh olim hozirda AQShning Detroyt shahrida istiqomat qiladi. U 1988-yilda AQShning Minnesota shtatida tug'ilgan bo'lib, 2010-yilda Michigan universitetining rus tili va siyosatshunoslik yo'nalishini bitirgan. Yosh bo'lishiga qaramasdan, bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirishga ulgurgan olim O'zbekistonga ham ko'p bora kelgan, bir muddat bu yerda yashab, o'zbek tilini o'rgangan. K.Fort 2015-yilda Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanini ingliz tiliga tarjima qilishga kirishdi hamda sezilarli darajada qisqa muddat ichida asar tarjimasini tugatdi.

Dissertatsiyaning "**1.2. Badiiy tarjima konsepsiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan faslida badiiy matn tarjimasini jarayonida inobatga olinishi shart bo'lgan jihatlarga matnning ifodaliligi, undagi tagma'nolar, shakl va mazmun munosabati, ramzlar tili, til me'yorlaridan chetlashilgan holatlar, kommunikativlik kabilar kiradi. Badiiy matnning yozilish uslubi, yozuvchining maqsadi, asarning g'oyaviy mazmunidan kelib chiqqan holda va boshqa bir qator omillarga asoslanib, badiiy tarjima usullaridan muqobilini tanlab olish tarjimon oldidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Dissertatsiyaning "**1.3. Badiiy tarjimada pragmatik masalalar aks etishi**" deb nomlangan faslida badiiy tarjimada pragmatik masalalar asar mazmuni, muallif niyati va o'quvchiga ta'sir kuchini to'liq yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarjimon nafaqat matnning leksik va grammatik tuzilishini, balki undagi madaniy konnotatsiyalar, obrazlar tizimi, ijtimoiy va emotsional fonni ham hisobga olishi zarur. Pragmatik yondashuv badiiy asar o'ziga xosligini saqlash, o'quvchi ongida muallif yaratmoqchi bo'lgan ta'sirni hosil qilish, til va madaniyat

o'rtasidagi farqlarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, badiiy tarjimada pragmatik muvofiqlikni ta'minlash tarjimonning ijodiy yondashuvi, madaniy bilimlari va kontekstni chuqur anglash kompetensiyasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“1.4.Badiiy tarjima jarayonida uslub va usullarning qo'llanilishi”** deb nomlangan faslida badiiy tarjima jarayonida uslub va usullar tanlovi asar mazmuni, janri va muallif uslubiga mos holda amalga oshirilishi lozim. Tarjimon matndagi obrazlilik, emotsional ohang va estetik ahamiyatini saqlash uchun adekvat tarjima, erkin tarjima, stilistik moslashtirish, ekvivalent almashtirish kabi usullardan kompleks foydalanadi. Har bir uslubiy yechim muallifning badiiy maqsadini o'quvchiga yetkazishga xizmat qilishi bilan birga, til va madaniy farqlarini yumshatib, asarning o'ziga xos ruhini saqlashga yordam beradi. Shu bois, tarjima usullarining samarali qo'llanilishi badiiy asarning estetik va mazmuniy mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Dissertatsiyaning **“Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanida leksik stilistik ifoda vositalarining qo'llanilishi”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** Abdulhamid Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalarida qo'llangan metonimiya, metafora, sinekdoxa va mubolag'a kabi stilistik vositalarni tahlil qilish orqali asarning badiiy bo'yoqdorlik darajasi, undagi milliy-madaniy birliklarning ifodalanishi qanchalik saqlab qolingani aniqlangan.

Dissertatsiyaning **2.1. “Kecha va Kunduz” romanida qo'llanilgan metaforalarning asar badiiyligini oshirishdagi o'rni”** deb nomlangan faslida Dastavval metaforaning tabiiy, birlamchi, asosiy ma'nosi, keyin esa uning ko'chma – majoziy ma'nosi tarkib topadi. Dunyo tillarining barchasida metafora hodisasi mavjud ekanligini inobatga olgan holda biz metaforani inson tabiatiga xos bo'lgan hodisa deya olamiz. Shu bilan bir qatorda, har bir xalqning tarixi, o'zigagina xos turmush tarzi, madaniyati kabi unsurlarning metaforalar shakllanishiga bo'lgan bevosita ta'sirini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bir tildagi metaforik birikmani boshqa bir tilda ifodalash uchun tarjimondan alohida mahorat, ijodkorlik va yuqori bilim talab etiladi.

Shu o'rinda e'tiboringizni Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanidan olingan ayrim misollarga qaratmoqchimiz:

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillaridek selkillab tushmoqqa boshlaydi (– B. 3).

Xalqimizning milliylik jihatlarini tasvirlovchi ushbu roman parchasida metaforaning *ko'm-ko'k sochpopuklari* kabi birligida ko'rishimiz mumkin. Bu misolda *tollarning novda va yaproqlari* shakl, tuzilish jihatdan go'yoki yosh qizlarning o'rilgan sochlariga qiyoslanmoqda. Shuningdek, jumla davomida o'xshayotgan narsa (tol novdalari)dan tashqari u o'xshatilayotgan narsa ham ochiq tarzda ifodalanmoqda: *qizlarning mayda o'rilgan kokillaridek*.

Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda – dasturxon boshida o'tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko'rganidan keyin o'rnidan turib, o'rtog'ining yoniga chiqdi (– B. 7).

Ushbu parcha orqali Cho'lpon romanning bosh qahramoni Zebining holati haqida ta'rif bermogda. *Dasturxon boshida* degan vositani qo'llash bilan yozuvchi

asar qahramonlaridan biri Saltanatning oldiga mehmon sifatida dasturxon tuzalganini va uning yonida Saltanat o'tirgan holatni ang'lata olgan. Eshikning ikki tavaqasini esa xuddi ikki qanotga o'xshatish ham yozuvchining badiiy mahoratidan darak beradi. Bu namunada o'zbek tilining badiiy go'zalligi muvaffaqiyatli tarzda ochib berilgan.

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi (– B. 23).

Lekin Zebi shunday bir otaning qizikim, uning qo'lida har qanday kuchli mayllarini ham yuganlab tutmoqqa, ko'ngilning har bir havas va tilagini ko'ringan joyida bo'g'ib tashlamoqqa to'g'ri keladi ham (– B. 21).

Ushbu misollarning birinchisida Zebining ovozining chiroyli, jarangli ekaniga ta'rif berilar ekan, u jonon piyolaning ovoziga o'xshatilmoqda. *G'uborsiz, tiniq* belgi bildiruvchi so'zlari esa, asosan, narsa, predmet nomlari bilan ishlatilishi barchamizga ma'lum: *tiniq suv, g'uborsiz kiyim*. Ushbu sifatlarni ovozga nisbatan qo'llash badiiy tasvirni kuchaytirish vazifasini bajarib keladi. Ikkinchi parchada esa romanning birmuncha salbiy qahramoni hisoblangan Razzoq so'fini ta'riflash jarayonida yozuvchi metafora badiiy vositasiga yana bir bor murojaat etmoqda. Bu yerda *yuganlab tutmoq* va *bo'g'ib tashlamoq* so'z birikmalarida metafora leksik-stilistik vositasi yuzaga kelishi uchun harakat o'xshashligi asos bo'lgan. Ularni o'z ma'nosida qo'llash quyidagicha bo'lishi mumkin: *Otni yuganlamoq* (asarda: *kuchli mayllarini*), *o'ljasini bo'g'ib tashlamoq* (asarda: *har bir havas va tilagini*). Ushbu birikmalar ko'chma ma'no anglatib, insonning his-tuyg'ularga nisbatan qo'llanmoqda.

Dissertatsiyaning **“2.2. “Kecha va Kunduz” romanida metonimik vositalarining berilishi”** deb nomlangan faslida “Kecha va Kunduz” romanida qo'llangan metonimiyaga oid misollarga qaratmoqchimiz. Badiiy matnlarda ma'noni kengaytirishda eng keng qo'llanuvchi vosita bu metonimiya hisoblanadi. Biz metonimiyani inson ongi va borliqdagi bilimlar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaruvchi umumkognitiv jarayon deyishimiz mumkin. Metonimiyada ikki tushuncha o'rtasida almashayotgan ma'noni tushunish uchun insonda umuminsoniy va madaniy, maxsus ensiklopedik bilimlar mavjud bo'lishini talab etadi. Bunday universal va umuminsoniy bilimlarning metonimiya bilan bog'liqligini o'rganish ustida bugunga qadar ko'plab lingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu tufayli mazkur tadqiqot ishida aynan o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi metonimiyalar o'rganilgan.

Bu yoqda otiga serzarda qamchi bergan O'lmasjonning horg'in vujudi bu qaltis uchrashuvning guldirama olovida yonarkan, o'zidan begona bo'lib ketayotgan Zebining ko'zlarida yirik-yirik marvarid donalari yiltirardi... (– B. 21).

Ushbu keltirilgan parchada muallif *marvarid donalari* birikmasini qo'llash orqali metonimik ma'no ko'chimini hosil qilgan. Keltirilayotgan parchada haqiqiy marvarid donalari emas, balki yirik marvaridlarga o'xshatilayotgan Zebining ko'z yoshlari nazarda tutilmoqda. Biroq bu ma'noni tashuvchi bir nechta so'zlar tushirib qoldirilishi va ularning ma'nosi gapdagi mavjud so'zlarga ko'chishi metonimiyaga asos bo'lgan. Ya'ni xuddi yirik marvarid donalariga o'xshaydigan ko'z yoshlari yiltirar edi, deyish o'rniga ushbu ma'no marvarid donalari yiltirardi, shaklida

ixcham tarzda ochib berilgan. Metonimiyaning hosil bo'lishiga berilgan ilmiy ta'riflarda uni "so'z qizg'anish san'ati", deb atash ham ushbu holatga yetarli izoh bo'ladi.

– *Jonidan to'ygan bo'lsa yaxshi! – dedi u. – Jonidan to'yganlar yaxshi so'qishadi. Oq podsho "vayna"da qiynalib qolsa, qishloqning hammasini yig'ib jo'nataman! Ish yirik, mirza (– B. 184).*

Mazkur matnda qishloqni yig'moq birikmasida qishloq deganda unda yashovchi insonlar ifodalanmoqda. Ya'ni ma'lum insonlar guruhini tasvirlash uchun ular yashagan hudud nomi qo'llanmoqda, bu orqali metonimiyaning joy nomi bilan bog'liq turi hosil qilinmoqda.

Dissertatsiyaning "2.3. **"Kecha va Kunduz" romanida sinekdoxa stilistik vositasi**" deb nomlangan faslida mazkur asarda qo'llanilgan sinekdoxa o'ld misollarga qaratsak. Bizga ma'lumki, sinekdoxa stilistik vositasi ham metonimiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi, biroq sinekdoxada nutqimizda ishtirok etayotgan aloqador qism, asosan, biz ifodalamoqchi bo'lgan narsaning bir bo'lagi bo'ladi.

– *Nima qilay? – dedi so'fi, ovozi juda past edi. – Qo'limdan nima keladi? (– B. 14).*

Mazkur parchada *qo'limdan nima keladi* jumlasida *qo'l* so'zi orqali sinekdoxik ma'no ifodalangan. "*Qo'lidan biron narsa kelmoq*" birikmasi sinekdoxik ma'no ko'chishi asosida shakllangan frazeologik birlik – ibora hisoblanib, o'zbek tilida keng qo'llaniladi. Uning ma'nosi "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da quyidagicha keltiriladi: "*bajarishga, qilishga qodir bo'lmoq, bajara olmoq, qila olmoq*". Ko'rinib turibdiki, bu iborada *qo'l* so'zi aynan biron narsani *qo'l* bilan ushlab turish ma'nosini ifodalash bilan cheklanmagan. Sinekdoxa asosida ma'no ko'chishi tufayli *qo'l* so'zi o'z ma'nosidan tashqari, "butun-qism" munosabatiga kirishib, insonga ishora qilmoqda. Ya'ni "qo'lidan biron ish kelmoq" deganda faqat *qo'l* orqali bajarish mumkin bo'lgan ishlar emas, balki inson tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan barcha ish-harakatlar nazarda tutilmoqda.

Tez-tez bo'lib turadigan bu xil gaplar uning yuzini kuldirib, ko'nglini ko'taradi, tinmasdan ishlash uchun bilagiga darmon va quvvat beradi (– B. 28).

Mazkur jumlada *yuzini kuldirib, bilagiga darmon va quvvat beradi* birikmalarida sinekdoxa asosidagi ma'no ko'chishi kuzatiladi. Har ikkala misolda ham "mikrokozmi" – sinekdoxaning "*qism orqali butun*"ni anglatuvchi turi qatnashgan bo'lib, tananing turli a'zolari "*qism*" sifatida insonga ishora qilgan. Birinchi misolda *yuzini kuldirib* deganda *yuz* so'zi insonning kulishini ifodalagan. Asar qahramoni Xolmatning kulishi, xursand bo'lish holati uning o'zi orqali emas, "yuzi kulishi" orqali ifodalanishi matnga tasviriylik, badiiylik bag'ishlagan. Ikkinchi namunada *bilagiga darmon va quvvat beradi* deyish orqali qahramon (Xolmat)ga aytilayotgan so'zlarning yoqimli, kuch bag'ishlovchi ekanligi ifoda etilgan. Bu so'zlar qahramonni xursand qilib, uni yanada qattiqroq ishlashga undaydi va aslida uning faqatgina bilagiga emas, butun tanasiga kuch-quvvat beradi. "*Bilagiga darmon bermoq*" birikmasida "*bilak*" so'zi orqali qahramonning faqat bir tana a'zosi emas, butun tanasining kuchga to'lishi nazarda tutilgan.

Shu bilangina olti jondan birikkan katta bir oilani naridan beri tebratib keladi. Onasi qarib, bukchayib qolgan, bir qizi bilan bir o'g'li hali yosh go'dak, ro'zg'orning butun ishi xotini bilan singlisining bo'ynida (– B. 28).

Yuqoridagi matnda *olti jondan birikkan katta bir oila* birikmasida sinekdoxik ma'no ko'chimi mavjud. “Jon” so'zi qism hisoblanib, butunga ishora sifatida insonni anglatib kelgan va sinekdoxaning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. *Olti jondan birikkan* deyish orqali oilada oltita inson mavjud ekanligi chiroyli tarzda ochib berilgan.

Dissertatsiyaning **“2.4. Mubolag'a badiiy vositasining “Kecha va Kunduz” romanida qo'llanishi”** deb nomlangan faslida ifodalanayotgan fikrning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda tushunilishini talab etuvchi, fikrning aslidan oshirib, bo'rttirib ifodalanishi tilshunoslikda mubolag'a deb yuritiladi.

– *Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko'ring. “Eshon”, desangiz, otam o'lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan* (– B. 18).

Ushbu parchada o'lganini ham bilmaydi deyish orqali muallif asar qahramoni So'fining boshqa bir qahramon (Eshon)ga nisbatan sadoqatini, har narsaga tayyor ekanligini ko'rsatib bergan. Bu so'zlarning asardagi yosh qahramon Zebining tilidan aytilayotgani shuni bildiradiki, bu kabi mubolag'a vositalari har qanday yosh vakillari uchun kundalik nutqning bir bo'lagi sanaladi.

Sovchining ko'pligidan ostonasi yeyilib ketgan, deydilar... Bilmadik, qaysi tolei balandga nasib bo'lar ekan! (– B. 18).

Yuqoridagi misolda sovchilarning sonini oshirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida yozuvchi *ostonasi yeyilib ketgan* mubolag'asini qo'llaydi. Odamlarning (bu o'rinda sovchilar nazarda tutilgan) tinimsiz kirib-chiqishi natijasida qadamlarning zarbasidan uy ostonasining yemirilib, yeyilib ketishi, albatta, haqiqatga unchalik yaqin hodisa emas. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi va albatta, o'rinli qo'llanishi tufayli ushbu tasvir ifodasi matndan ajralib qolmasdan, uning umumiy mazmunini ochib berishga xissa qo'shgan.

Dissertatsiyaning **“Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanining inglizcha tarjimasida leksik-stilistik vositalarning qo'llanilishi”** deb nomlangan **uchinchi bobida** badiiy tarjima jarayonida uslub va usullarning ishlatilishi, “Kecha va Kunduz” romanidagi metafora, metonimiya, mubolag'a leksik stilistik vositalarining asliyat va tarjimada berilishi hamda mazkur uslubiy vositalarni tarjima matnida aks ettirish usullari, shuningdek, “Kecha va Kunduz” romani tarjimasida sinekdoxa uslubiy vositasining ifodalanishi hamda ularning stilistik xususiyatlarini tarjimada aks ettirish usullari haqida so'z yuritilgan. Sanab o'tilgan uslubiy birliklarning har biriga alohida to'xtalib, ular haqidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlar, tilshunos olimlar fikrlari keltirib o'tilgach, K.Fort tomonidan ushbu ifodalarning tarjima qilinishi bilan bog'liq bir qancha misollar ko'rib chiqilgan. K.Fort stilistik vositalarning tarjimasida jarayonida qo'llagan usullar tahlil qilinib, turli o'rinlarda tarjimani yaxshilash maqsadida muqobil usullar taklif etilgan.

“3.1. Metafora, metonimiya, mubolag'a leksik-stilistik vositalarining asliyat va tarjimada berilishi” deb nomlangan faslida e'tiboringizga “Kecha va Kunduz” asarining Kristofer Fort tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasida qo'llangan badiiy unsurlar, uslubiy vositalarni asarning asli bilan solishtirib,

o‘zbek milliy an‘analari, madaniyatining nozik jihatlarini o‘zida mujassam etgan, badiiy unsurlar, rang-barang stilistik vositalarga nihoyatda boy bo‘lgan ushbu asarni ingliz tiliga tarjima qilishda uning milliylik bo‘yog‘ini, badiiy ifodalarning qiymatini saqlab qolish masalalarini tadqiq etishimiz natijasida olgan xulosalarimizdan ayrimlarini havola etamiz:

Asliyat matni: *Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi ... (– B. 4).*

Kristofer Fort tarjimasi: *Every year the coming of spring joy tickles hearts. Warm blood rushes to nature’s trembling bodies once again (– P. 45).*

Yuqoridagi matnda *ko‘ngillarni qitiqlay boshladi, dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi* birikmalarida metaforik ma‘no mavjud bo‘lib, ular asarning ilk qismlaridanoq, tabiat tasvirini yaratishda qo‘llanilmoqda. *Ko‘ngillarni qitiqlamoq* birikmasi *hayajonga solmoq* ma‘nosida ishlatilayotgan bo‘lsa, *tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi* deyish orqali muallif bahor kelganini bildirishda obrazli tasvirdan foydalanmoqda.

Kristofer Fort tarjimasida esa *coming of spring joy tickles hearts, warm blood rushes to nature’s trembling bodies* birikmalari o‘zbek tilidan aynan o‘g‘irilgan, deb aytishimiz mumkin. Tarjimon bu yerda so‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalangan bo‘lib, bizningcha, bu usulning tanlanishi to‘g‘ri bo‘lgan, chunki bu yerda matnning to‘liq ma‘nosini ochib berilgan.

Asliyat matni: *Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi (– B. 4).*

Kristofer Fort tarjimasi: *The ever-so-green sochpopuks of the willows begin to quiver like a young woman’s intricate braids (– P. 45).*

Ushbu misolda *tollarning sochpopuklari* birikmasida metaforik ma‘no mavjud bo‘lib, tol daraxtining novda va barglari qizlar sochiga qiyos qilinmoqda.

Kristofer Fort tarjimasiga qaraydigan bo‘lsak, bu birikmaning to‘g‘ridan to‘g‘ri ingliz tiliga olib o‘tilganligini ko‘ramiz. Metaforani to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish deganda, odatda, uning tarkibidagi har bir so‘zning tarjimasini topib yozish tushuniladi. Bu yerda kuzatilayotgan holatda esa metaforik birikmaning ikkinchi so‘zi – “sochpopuk” atamasi ingliz tiliga o‘girilmagan. Natijada, *ever-so-green sochpopuks of the willows* shaklidagi ifoda paydo bo‘lgan. Bu gapni tarjima asarda o‘qigan ingliz kitobxonlari uning ma‘nosiga tushunmasliklari tabiiy. Bu muammoning yuzaga kelishiga sabab esa, ingliz hamda o‘zbek xalqining hayot tarziga, urf-odatlariga bog‘liq farqli jihatlar hisoblanadi. “Sochpopuk” tushunchasi o‘zbek xalqi hayotida keng qo‘llanuvchi, barchaga birdek tushunarli bo‘lgan narsa bo‘lsa ham ingliz tilida bu so‘z ham, u bilan bog‘liq biron urf-odat ham mavjud emas.

Dissertatsiyaning “3.2. “Kecha va Kunduz” romanidagi metafora, metonimiya, mubolag‘a uslubiy vositalarini tarjima matnida aks ettirish usullari” deb nomlangan faslida o‘zbek milliy an‘analari, madaniyatining nozik jihatlarini o‘zida mujassam etgan, badiiy unsurlar, rang-barang stilistik vositalarga nihoyatda boy bo‘lgan ushbu asarni ingliz tiliga tarjima qilishda uning milliylik bo‘yog‘ini, badiiy ifodalarning qiymatini saqlab qolish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Asliyat matni: *Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi* (– B. 4).

Kristofer Fort tarjimasi: *Under the ice the somber cheeks of the murky running waters begin to smile; the water, though tired and limping, like a freed slave, begins to gnaw its way forward towards the satisfaction of liberty. The first bird of spring brings the pleasure of the season's first well-fried corn* (– P. 45).

Yuqoridagi parchada asar boshidagi bahor tasviri davom etib, *suvlarning g'amli yuzlari kuldi, bo'shalgan qul singari, horg'in-horg'in oqsalarda, erkinlik nash'asini kemira-kemira* birikmalarining barchasi ko'chma ma'noda qo'llangan. Narsa-buyum nomini bildiruvchi *suv* so'zining kulishi, horg'inlik his qilishi, umuman, biron tuyg'uga ega bo'lishi mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Biroq bu yerda ushbu so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmasdan, qo'shimcha konnotativ ma'nolarni aks ettirmoqda. *Erkinlikning nash'asini kemira-kemira* birikmasida yana bir metaforik ko'chim mavjud: matndagi *kemirmoq* so'zi his-tuyg'ularga ishora qilib, *erkinlikning nash'asini (quvonchini) his qilmoq* ma'nosida ishlatilgan.

Kristofer Fort tarjimasida ham bahor tasviriga oid ushbu metaforik iboralarning barchasi to'liq aks ettirilgani diqqatga sazovordir. Tarjimon barcha metafora ifodalarini so'zma-so'z tarjima metodidan foydalanib inglizchaga o'g'irgan. Masalan, *cheeks of the murky running waters begin to smile, tired and limping, like a freed slave, begins to gnaw its way forward towards the satisfaction of liberty* kabi ifodalarda o'zbek tilidagi metafora ingliz tilida ham xuddi shu ma'noni anglatishi tarjimada qo'l kelgan. *Suvlarning g'amli yuzlari kuldi* gapi ingliz tilidagi matnda *cheeks of the murky running waters begin to smile* tarzida keltirilgan. Bunda so'zma-so'z tarjimani qo'llash orqali tarjimon ingliz tiliga bir martalik yangi metaforik birikmani olib kirgan. *Suv* predmetiga nisbatan *horg'in-horg'in oqsalarda, erkinlik nash'asini kemirib* kabi ish-harakat bildiruvchi so'zlarning ishlatilishi metaforik ma'no ko'chishini yuzaga keltirgan. Shuningdek, jonsiz predmet bo'lgan *suv* tushunchasini insonga – bo'shalgan qulga qiyoslash orqali yana bir obrazli tasvir holati yuzaga kelgan. Bu holat inglizcha tarjimada ham kuzatilib, *suv* so'ziga oid metafora so'zma-so'z tarzda tarjima tiliga olib o'tilgan: *tired and limping, like a freed slave, begins to gnaw its way forward towards the satisfaction of liberty*. Bunday stilistik birliklar asar davomida juda ko'p uchraydi, hatto yuqoridagi parchada bitta gapning o'zida bir nechta tasviriy ifodalar ketma-ket joylashtirilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Asliyat tilidagi badiiy-stilistik vositalarning tarjima tilida ham aynan ekvivalentiga ega bo'lishi bizga shuni ko'rsatadiki, metafora – insonning borliqqa munosabatini aks ettiruvchi kognitiv jarayon va uning mohiyati barcha tillar uchun umumiydir. Ikkinchi gapga e'tibor beramiz: *The first bird of spring brings the pleasure of the season's first well-fried corn*. Bu yerda ham so'zma-so'z tarjima usuli qo'llangan, biroq bu usul biroz g'alizlikka sabab bo'lgan. Asliyat kitobda *birinchi yorilgan bodroq* deganda erta bahorda daraxtlarning gullashi nazarda tutilib, gapda shu gullarga ishora qilinmoqda. Daraxtlarning yangi ochilgan gulini bodroqqa

o'xshatish, gulning ochilish jarayonini esa bodroqning pishib, yorilishiga qiyoslash o'zbek tilida odatiy holat bo'lib, xalqimiz orasida juda keng qo'llanadi.

Asliyat matni: *Yo'q, so'fi! qo'ldan oldirdi, lekin o'rtog'i supura boshlagandan so'ng:*

– *Voy, bu nimasi! Qo'ying, o'zim supuraman! – deb yana supurgiga yopishdi* (– B. 9).

Kristofer Fort tarjimasi: *Zebi released the broom, but quickly said, “Voy, what are you doing! Put it down, I'll do it myself!” and seized the broom* (– P. 49).

Yuqoridagi parchada *voy* undov so'zi his-hayajonning kuchliligini anglatib, ma'noning bo'rttirib ko'rsatilishini ta'minlagan. E'tiborlisi shundaki, tarjima matnida ham ushbu til birligi o'zgarishsiz qoldirilgan. Ma'lumki, har bir tilning o'z madaniyatiga xos jihatlari, urf-odatlari, dunyoqarashidan kelib chiqib shakllanuvchi atamalari bor bo'lganidek, yuqoridagi kabi undov so'zlar, taqlid so'zlar kabi til birliklari ham dunyo tillarida turlicha shakllanadi. Bu yerda ham *voy* so'zi, asosan, o'zbek tiliga xos birlik bo'lib, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da unga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Qattiq og'riq, alam tuyg'usini ifodalaydi.

2. Hayajon, qo'rquv va, aksincha, sevinch, hayrat, taajjub kabi his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Asardan olingan parchada *voy* so'zi ifodalayotgan ma'no izohli lug'atda so'zning ikkinchi ma'nosi sifatida qayd etilgan. Ingliz tilida ham turli vaziyatlarda insonning his-tuyg'usini ifodalaydigan bu kabi so'zlar juda ko'p bo'lib, ularning turli xil ma'no nozikliklari mavjud. Asarda qo'llanilgan *voy* so'ziga eng yaqin alternativ sifatida esa biz *oh* so'zini tanladik. OALDS (Oxford Academic Learners Dictionaries) lug'atida esa bu so'zning uning ma'nosi lug'atda quyidagicha izohlanadi:

1. Used when you are reacting to something that has been said, especially if you did not know it before (Avval sizga noma'lum bo'lgan biror ma'lumotni eshitganda o'z munosabatingizni ifodalashda qo'llaniladi).

2. Used to express different emotions, such as surprise, disappointment, and pleasure, often as a reaction to something someone has said (Biron gapga nisbatan hayratlanish, xafalik, sevinch kabi turli his-tuyg'ularni ifodalashda ishlatiladi).

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi *voy* taqlid so'ziga ekvivalent sifatida ingliz tilida *oh* til birligini keltirishimiz mumkin, shuningdek, tarjima jarayonlarida ham bu birliklarni shunday tarzda o'girishimiz mumkin. “Kecha va Kunduz” asari tarjimasidan keltiriladigan parchada *voy* undov so'zining qanday ifodalanganiga yana bir bor nazar solamiz: *Zebi released the broom, but quickly said, “Voy, what are you doing! Put it down, I'll do it myself!” and seized the broom.*

Mazkur gapda asliyat matnidagi leksik birliklar tarkibi ham, grammatik qurilish uslubi ham, stilistik vositalar ham ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri olib o'tilgan. Shuning uchun, bu so'zni tarjima tiliga aynan ko'chirib o'tkazmasdan, unga mos bo'lgan boshqa til birligini tarjima tilidan qidirib topish maqsadga muvofiq bo'ladi. *Supurgini qo'ldan oldirdi* jumlasini ingliz tilidagi matnda *released the broom* deb ifodalangan, biroq *release* so'zi ingliz tilida *ozod qilmoq* ma'nosini anglatadi. Ya'ni bu o'rinda tarjima matnida ma'noning buzilishi kuzatilib,

supurgini ozod qildi tarzidagi g'aliz jumla kelib chiqadi. Ushbu gapni ingliz kitobxonlariga to'g'ri shaklda yetkazib berish uchun quyidagi tarjima variantini taklif etamiz:

"Saltanat suddenly took the broom from Zebi, but Zebi quickly said..."

Parchadagi keyingi stilistik vosita *supurgiga yopishdi* jumlasida mavjud bo'lib, bu yerda metafora asosidagi ma'no ko'chishi kuzatilmoqda. *Yopishmoq* so'zining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan ta'riflarini ko'rib chiqamiz:

1. Birikib, tutashib ketmoq; jiplashmoq; qapishmoq.
2. Ilashmoq.
3. Astoydil berilmoq, jon-jahd bilan kirishmoq.

Ushbu izohlarga qaraydigan bo'lsak, **yopishmoq** so'zining semantik tarkibida *ushlamoq* ma'nosini uchramasligini ko'ramiz, Demak, bu so'z ko'chma ma'noda qo'llangan va *supurgini qattiq ushlab olmoq, tutgan narsasini qo'yib yubormaslik* kabi ma'nolarni ifodalagan. K.Fort tarjimasida esa bu birikma demetaforizasiya qilingan va *seized the broom* tarzida aks ettirilgan. *To seize* so'zining OALDS (Oxford Academic Learners Dictionaries) lug'atidagi izohini ko'rib chiqamiz:

1. To take somebody/something in your hand suddenly and using force (Biron shaxs yoki narsani kuch ishlatgan holda to'satdan ushlamoq).

Bu so'zning ma'nosida *kuch bilan ushlamoq* semasi mavjud bo'lgani uchun kontekst ma'nosining asliyat matnidan biroz farqlanishiga sabab bo'lgan. Asarda *supurgiga yopishdi* deyish orqali uni qattiq ushlab olganlik ma'nosi nazarda tutilib, kuch ishlatish haqida gap ketmagan. Shu tufayli ingliz tili matnida ham ushbu ma'noni aynan yetkazib berish uchun *qattiq ushlab olmoq* ma'nosidagi boshqa leksik birlikni qo'llash to'g'riroq bo'ladi. Ushbu gapning quyidagi tarjima variantini taklif etamiz: *"Put it down, I'll do it myself!" and grabbed the broom.* Jumlada *seized* so'zi *grabbed* so'zi bilan almashtirilgan. Chunki *to grab* fe'lining semantik qatlamida *kuch ishlatmoq* ma'nosi kuzatilmaydi, shuning uchun asarda nazarda tutilgan ma'no bilan to'liq mos tushadi.

Asliyat matni: *So 'fi xo 'rsinganidan ovozi qaltirab, dedi:*

– *Eski gaplarni qo'zg'ab nima qilasiz? Bo'lar ish bo'lib o'tdi... Yeri ham qursin, merosi ham...*

– *Yo'q, so'fi! Unday demang! (– B. 16).*

Kristofer Fort tarjimasini: *Razzoq-sufi's voice wavered as he sighed:*

"Why do you bring up what's already been decided? The past is the past. ... Let the land dry up and the inheritance too."

"No, Razzoq! Don't speak that way!" (– P. 59).

Yuqoridagi matnda eski gaplarni qo'zib birikmasi stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, bu yerda qo'zg'amoq fe'li ko'chma ma'noda qaytadan gapirish, o'tib ketgan voqeani eslash kabi ma'nolarni ifodalangan. Matnning inglizcha tarjimasida esa bu birikma *why do you bring up what's already been decided* tarzida keltirilgan. *Bring up* ham ingliz tilida frazeologik birlik hisoblanib, "biron masalani, gapni o'rta tashlamoq", "gap boshlamoq" ma'nolarini anglatadi. Ingliz tilidagi matnda asliyatdagi metaforik birikma qo'llanmagan bo'lsa-da, kontekstning umumiy ma'nosi, badiiy xususiyati kitobxonga muvaffaqiyatli

yetkazib berilgan. Keyingi *bo'lar ish bo'lib o'tdi* jumlasida esa tarjima matnida *the past is the past* tarzida o'z aksini topgan. Bu yerda tarjimon gaplarni so'zma-so'z tarjima qilmasdan, ularning ma'noviy jihatlari urg'u bergan va ingliz tilida iste'molda mavjud bo'lgan stilistik vositalarni tarjimaga olib kirishga harakat qilgan. *Yeri ham qursin, merosi ham...* gapida esa qursin so'zi majoziy ma'noda qo'llangan. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu yerda *biror ho'l narsaning qurishi, namlik holatidan quruqlikka o'tish* ma'nosi umuman mavjud emas. Tarjima matniga qarab, yuqoridagi gapning tarjimasini ko'rib chiqamiz: *Let the land dry up and the inheritance too*. Ushbu parchada *yeri ham qursin* degan gap *let the land dry up* shaklida berilgan. Bu esa muallif ifodalamoqchi bo'lgan ma'noning noto'g'ri tushunilishiga sabab bo'ladi. Chunki ingliz tilidagi *dry up* birikmasida o'zbek tilidagi kabi uslubiy ma'no mavjud emas.

Dissertatsiyaning “**3.3. “Kecha va Kunduz” romani tarjimasida sinekdoxa uslubiy vositasining ifodalanishi**” deb nomlangan faslida biz sinekdoxa leksik-stilistik vositasi hamda sinekdoxik ma'no ko'chimi asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklarning Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub “Kecha va Kunduz” romanining asl badiiy matnida ko'llanishini ko'rib chiqish, ularning ma'no xususiyatlarini tahlil qilgan holda tarjima matnida aks ettirish yo'llari ustida bir qancha izlanishlar olib borishga harakat qildik. Tarjima matni sifatida “Kecha va Kunduz” romanining Kristofer Fort tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasini olinib, lisoniy birliklarning asliyat va tarjima matnidagi shakllarini qiyosiy aspektida o'rganishga harakat qildik.

Asliyat matni: *Shu bilangina olti jondan birikkan katta bir oilani naridan beri tebratib keladi. Onasi qarib, bukchayib qolgan, bir qizi bilan bir o'g'li hali yosh go'dak, ro'zg'orning butun ishi xotini bilan singlisining bo'ynida* (– B. 34).

Kristofer Fort tarjimasini: *He was barely able to support his six-person family. His mother had aged and started to stoop; his son and daughter were still babies, so the housework fell to his wife and sister* (– P. 66).

Asliyat matnida keltirilgan *olti jondan birikkan katta bir oila* birikmasida *jon* so'zida sinekdoxik ma'no ko'chimi mavjud. *Jon* deganda “qism orqali butunni ifodalash” munosabati mavjud bo'lib, insonning bir qismi sifatida *jon* so'zi oilaning a'zolarini – insonlarni ifodalab kelgan. Tarjima matniga e'tibor berilsa, ushbu sinekdoxik ma'no ingliz tiliga olib o'tilmagani ko'rinadi. *Olti jondan birikkan oila* ma'nosida K.Fort *six-person family* birikmasini qo'llaydi. Bu o'rinda ma'noviy tarjima asosiy o'ringa chiqib, stilistik vositalarning tarjimada aks etishiga e'tibor qaratilmagan. Sinekdoxa uslubiy vositasi tushirib qoldirilgan bo'lsa-da, uning asliyat matnida ifodalagan ma'nosi tarjimada to'liq ochib berilgan. Keltirilgan parchadagi keyingi sinekdoxa matn oxiridagi *bo'yin* so'zida ifodalangan. *Ro'zg'orning butun ishi xotini bilan singlisining bo'ynida* jumlasida ishlarning yoki boshqa narsaning insonning bo'ynida turishini o'z ma'nosida tushunish mumkin emas. Bu yerda *bo'yin* so'zi orqali sinekdoxa munosabati yuzaga chiqqan, ya'ni bu so'z qism sifatida “butun”ga – insonga ishora qilgan. Tarjima matnida esa ushbu sinekdoxik munosabat yo'qolib ketgan: *the housework fell to his wife and sister*. Sinekdoxaning matndan olib tashlanishi hisobiga uning ma'nosini ifodalash uchun ma'lum bir leksik birlik ishlatilmagan. Biz tarjima

matnida sinekdoxa tasviriy ifoda vositasini saqlab qolish uchun jumlaning quyidagi shaklda tarjima qilingan variantini taklif etamiz:

“All of the housework was put on his wife’s and sister’s shoulders”.


Asliyat matni: *Mehmonlardan Qumrixon birdaniga tutning tagiga borib qolib, u yerda ikki erkakning o‘ziga qarab kulib turganini ko‘rgach, “voy, o‘la qolay!” deb, uyalib orqaga qaytdi (– B. 43).*

Kristofer Fort tarjimasi: *One of the guests, Qumri, stepped away from the party for a moment, heading in the **direction of the mulberry tree**. Upon seeing the two men there, looking at one another and laughing quietly, she turned white and let out a muffled, “Voy, the shame!” (– P. 49).*

Asliyat matnida qo‘llangan *tutning tagiga* birikmasi sinekdoxa orqali ifodalangan bo‘lib, “tut” so‘zi orqali daraxt ma‘nosi ifodalangan. “Qism orqali butun”ni aks ettirishda meva hamda daraxt nomlaridagi ushbu holat o‘zbek tilida keng uchraydigan odatiy holat hisoblanadi. Biroq bu holat o‘zbek tiliga xos xususiyat bo‘lgani uchun uning sinekdoxa holatida ingliz tiliga tarjima qilinishi ma‘noni to‘liq ochib berolmaydi. Ushbu sinekdoxik ko‘chim namunasi ham ingliz tiliga tarjimasi fikrimizni asoslaydi: *heading in the direction of the mulberry tree*. Matnda *mulberry (tut)* so‘zining yonida “daraxt” deb tarjima qilinuvchi *tree* so‘zi qo‘shilgan va shu tufayli u o‘zining sinekdoxik ma‘no xususiyatini yo‘qotgan. Umuman, ingliz tilida daraxt nomlari, xususan, mevali daraxtlarning oldidan “daraxt”(“*tree*”) so‘zi qo‘shib aytiladi. Bu narsa ingliz tiliga tarjima jarayonida sinekdoxa stilistik vositasining tushib qolishiga sabab bo‘ladi.

Qisqacha aytganda, sinekdoxa stilistik vositasi nutqning boshqa ko‘chma ma‘noli birliklariga nisbatan kamroq uchrashi va nisbatan murakkab sanalishiga qaramay, yozuvchi Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” romanida ulardan erkin hamda o‘rinli tarzda foydalangan. Tarjimon K.Fort romandagi sinekdoxa birliklarini tarjima tiliga olib o‘tishda so‘zma-so‘z tarjima, almashtirish kabi turli usullardan foydalanib, asarning badiiy qiymatini saqlab qolishga erishgan deb aytish xato bo‘lmaydi.

Shunday qilib, tahlilga tortilgan asliyat matnlarda: metafora 68ta, metonimiya 53ta, mubolag‘a 46ta hamda senikdoxa 38ta qo‘llangan bo‘lsa, tarjimon K.Fort tarjimasida: **metafora** 52ta, **metonimiya** 45ta, **mubolag‘a** 42ta hamda **senikdoxa** 17 ta aks etganligining guvohi bo‘ldik (1-rasm).



1-rasm. Asliyat va tarjima matnlarda stilistik vositalar soni

Xulosa qilib aytganda, har bir til xalqning madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, ingliz va o‘zbek xalqlarining madaniyat hamda turmush tarzidagi farqlar “Kecha va Kunduz” romanining tarjimasida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Asliytdagi ayrim leksik-stilistik vositalar o‘zbek xalqiga xos ma’nolarni ifodalagani uchun ularni ingliz tiliga to‘liq ekvivalent shaklda o‘g‘irish qiyin kechgan. Shu bois tarjimonda madaniy kontekstni saqlagan holda, ularni inglizxon kitobxon uchun tushunarliroq vositalar bilan almashtirish zarurati tug‘ilgan. Natijada, bu jarayon Cho‘lponning o‘ziga xos badiiy uslubini qisman o‘zgartirgan bo‘lsa-da, asarning mazmuni va ruhini yetkazishga xizmat qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

1. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tarjimashunosligida bevosita tarjimalarning ko‘payishi ijobiy jarayon bo‘lishiga qaramay, bu holat nazariy masalalarni yanada chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. A.Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanining ingliz tiliga bevosita tarjimasida badiiy-stilistik vositalarning aks ettirilish usullari hamda strategiyalari tahlili bunday tarjimalarning afzalliklari bilan bir qatorda tarjimon zimmasiga tushadigan mas’uliyat va tanlovdagi murakkabliklarni ham namoyon etdi. Shu bois, nazariy tarjimashunoslikda bevosita tarjimalarning o‘rni va yondashuvlarini chuqur tahlil etishga muhim ilmiy ehtiyoj sifatida qaraladi.

2. Tarjima jarayonida til omillari bilan bir qatorda madaniy va stilistik jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. A.Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romanining ingliz tiliga tarjimasida tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimon K.Fort asarning badiiy ruhini saqlashga intilar ekan, metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag‘a kabi stilistik vositalarni maqsadga muvofiq tarzda ifodalagan. Tahlil natijasida o‘zbek tilidagi metaforalar ko‘proq xalqona, tabiat va kundalik hayot manzaralariga tayanishi, ingliz tilida esa ular umumiy, psixologik yoki abstrakt shaklda qayta yaratilishi aniqlanib, bu hol tarjimada madaniy-estetik moslashuvning muhimligini namoyon etdi.

3. Badiiy asar tarjimasining muvaffaqiyati uning estetik ta’siri, o‘quvchini jalb etish kuchi va badiiy unsurlarni saqlash darajasi bilan belgilanadi. Kristofer Fort “Kecha va Kunduz” romanini ingliz tiliga tarjima qilishda leksik-stilistik vositalar orqali asliyatning badiiy-estetik ruhini to‘laqonli yetkazishga erishganligi tarjimonning yuksak potentsiali bilan izohlanadi.

4. Sinekdoxa bilan bog‘liq hali yechimini topmagan masalalarga badiiy adabiyotda sinekdoxani tarjima qilishda obraz va estetik ta’sirni saqlash muhimligi, tarjima nazariyasida sinekdoxani qayta yaratish uchun ekvivalent, perifraza, funksional almashtirish va etnomadaniy izoh kabi tarjima usullarni tavsiya etish mumkinligi ta’kidlanadi.

5. “Kecha va Kunduz” romanida turli leksik-stilistik vositalar, badiiy tasvirlar va frazeologik birliklar keng qo‘llanilgan. K.Fortning tarjimasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab frazeologizmlar boshqa tilda to‘liq ekvivalentga ega emasligi tillar o‘rtasidagi milliy-madaniy farqlar bilan izohlanadi.

6. Tadqiqot davomida metafora, metonimiya, sinekdoxa va mubolag‘a kabi ma‘no ko‘chishiga asoslangan stilistik vositalarning tarjimada o‘ziga xos yondashuvlarni talab qilishi aniqlandi, shuningdek, ushbu uslubiy birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda keng qo‘llaniladigan so‘z o‘zlashtirish, so‘z almashtirish, kalkalash, ekvivalent tanlash, transpozitsiya, adaptatsiya va boshqa usullar ustuvor ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi.

7. Romanni ingliz tiliga o‘girish jarayonida asliyat va tarjima tillarining o‘ziga xos xususiyatlari muhim rol o‘ynagan. Bu, ayniqsa, leksik-stilistik birliklar tarjimasida aniqroq ko‘zga tashlanadi. Ingliz va o‘zbek tillarining turli til guruhlariga mansubligi, ular o‘rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlar mavjudligini hisobga olgan holda metafora, metonimiya va shu kabi uslubiy vositalar ba‘zan to‘g‘ridan to‘g‘ri, ba‘zan almashtirish va boshqa usullar orqali tarjima matniga olib kirilganligi stilistik vositalar tarjimasi jarayoniga yangicha qarash imkonini beradi.

8. K.Fortning “Kecha va Kunduz” tarjimasi tahlili jarayonida ayrim joylarda tarjima sifatini oshirish maqsadida muqobil yondashuvlar va kichik tuzatishlar taklif etildi. Bu orqali asarning mazmuni ingliz tilidagi matnda to‘liqroq ifodalanishi hamda Abdulhamid Cho‘lponning o‘ziga xos uslubini inglizzabon kitobxonlarga yanada aniqroq yetkazish ko‘zda tutilgan.

9. Badiiy asardagi milliy-madaniy birliklarni tarjima qilish xalqning turmush tarzi va mentalitetini to‘g‘ri aks ettirish bilan chambarchas bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Kecha va Kunduz” romanining inglizcha tarjimasida ayrim milliy-madaniy birliklar tushirib qoldirilgan yoki inglizcha ekvivalentlar bilan almashtirilgan. Bu holat, asosan, tarjimonning etnomadaniy kontekstni yetarlicha anglamasligi yoki yozuvchi hamda tarjimon dunyoqarashlaridagi tafovutlar bilan izohlanadi. Shuning uchun madaniy ma‘no yuklovchi bunday birliklarni tarjimada o‘xshatish, izohlash yoki stilistik ekvivalentlar orqali ifodalash eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

10. Badiiy asarlarni chet tillariga o‘girishda yordam beruvchi asosiy tarjima usullari ro‘yxatiga chet tilidan so‘z o‘zlashtirish, so‘z almashtirish, kalkalash(qisqartirish), so‘zlarning gapdagi tartibini o‘zgartirish, ekvivalentlik, transpozitsiya, adaptatsiya va boshqalarni kiritish mumkin. Bunday usullardan “Kecha va kunduz” romanining ingliz tiliga tarjimasi jarayonida ham keng foydalanilganini tahlillardan bilib olish mumkin.

**SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 AT NATIONAL UNIVERSITY
OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK**

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

ARIPOVA KAMOLA YUSUPOVNA

**EXPRESSION OF LEXICAL STYLISTIC DEVICES IN THE ENGLISH
TRANSLATION OF CHOLPON'S NOVEL «NIGHT AND DAY» (BASED
ON CHRISTOPHER FORT'S TRANSLATION)**

**10.00.06 – Comparative Literature Studies, Contrastive Linguistics and Translation
Studies**

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2021.2.PhD/Fil1848.

The dissertation has been carried out at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (abstract)) on the Scientific Council website (www.nuu.uz) and on the website «ZiyoNet» information and educational portal (www.ziyo.net).

Scientific supervisor: **Siddikova Iroda Abduzokhurovna**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: **Djusupov Nursulton Maxanbet uli**
Doctor of Philological Sciences

Asqarova Shaxnoza Kamoliddinovna
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Leading organization: **Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**

The defense will take place on “19” december, 2025 at 12:00 o’clock at the meeting of the Scientific Council awarding scientific degree DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 at National University of Uzbekistan. (Address: 100174, Tashkent city, Farabi street, 400. Phone: (99871) 246-08-62; Fax: (99871) 246-65-21. E-mail: nauka@nuu.uz. National University of Uzbekistan, The Faculty of Foreign Philology, 3rd floor, Room 3-11).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. (registered under the number 135). Address: 100174, Tashkent city, University street, 4. Phone: (99871) 246-02-24.

The abstract of dissertation was distributed on «_____» _____ 2025 y.
(Protocol at the register № _____ on «_____» _____ 2025).

R.H.Shirinova
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.G.Rabiyeva
Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences

S.E.Kamilova
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Abstract of PhD Dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In today's rapidly globalizing world, a process of mutual exchange is taking place between the peoples of the world in various fields. The development of cooperative relations between states is inextricably linked to the relationships established between the cultures of different peoples and nations. To build strong friendships and cooperation with the global community, every nation strives to learn the language, culture, art, and national literature of other nations. Establishing friendship in the cultural sphere on the international stage can lead to great success in all other aspects of social life, including political and economic relations.

The fact that literary works, in addition to various texts and scientific literature, are being translated into national languages in almost all countries around the world is a welcome development. This is proof of the strong interest among the world's peoples in learning each other's languages, spiritual wealth, and culture. A number of major examples of Uzbek literature have been and are being published in many languages worldwide so far. In particular, Abdulkhamid Cholpon's novel "Night and Day" has been translated into many foreign languages and has been highly acclaimed by foreign readers. The book was translated into English by the American scholar Christopher Fort and was published in the United States in January 2019. To mark the submission of the translation for publication, a major scientific conference was held in Tashkent in August 2018, which was also covered in American publications. A presentation of this work by Cholpon was held on January 17, 2020, at a conference organized by the British-Uzbek Society at the Embassy of Uzbekistan in London¹⁵. The participation of famous British writers, poets, and representatives of science and culture at this event shows that the work of Cholpon, particularly "Night and Day", a masterpiece of Uzbek literature, does not leave foreign academics indifferent.

The novel "Night and Day", which truthfully reveals the recent past of the Uzbek people, beautifully reflects our national traditions and values, and lovingly describes the wonderful qualities of our nation, can rightfully be called a masterpiece of Uzbek literature and a great spiritual gift from the great novelist Abdulkhamid Cholpon to our people. Any reader, whether Uzbek or of another nationality, who reads the novel will be captivated from the very first pages. Through the novel, they will delve into the national identity and spiritual world of the Uzbek people and become familiar with their values and traditions.

After our country gained independence, special attention was paid to the field of foreign language learning as part of various reforms. The task of "training modern personnel who know several foreign languages, conducting scientific work on foreign languages, and improving the methodology of language teaching" was designated as one of the priority tasks. Our country's increasingly active role in the

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 5 martdagi Namangan viloyati To'raqo'rg'ontumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs:<http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>

international arena and its expansion of cooperation with foreign countries in all areas make the need for learning foreign languages even more urgent. This, in turn, makes the task of carrying out adequate translations and expanding scientific research in the field of translation studies to train highly qualified translators even more relevant.

This dissertation research contributes to the implementation of the tasks outlined in a number of normative and legal documents, including: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2909 “On measures for the further development of the higher education system” dated April 20, 2017 the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3775 “On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms carried out in the country” dated June 5, 2018, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 “On the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030” dated October 8, 2019, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 292 “On measures for the organization of the activities of newly established research institutions of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan” dated May 18, 2017, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 610 “On measures to further improve the quality of foreign language teaching in educational institutions” dated August 11, 2017, and the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 816 “On providing higher education institutions with educational literature” dated October 10, 2018.

Compliance of the research with the priority areas of science and technology development in the Republic. The dissertation was carried out within the framework of the priority area of science and technology development in the Republic: I. “The formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state”.

Level of studying the problem. Great attention has been paid to the study of literary translation, which is recognized as the most complex type of translation, and the linguistic and extra linguistic issues that arise in it. Many scientific works have been conducted on these problems in global schools of translation studies.

In particular, foreign scholars such as P. Scave, A. Barcelona, Z. Koveses, G. Radden, L. Venuti, M. Anani, P. Newmark, K. Liu, and J. Vinay¹⁶ have conducted scientific work on the problems observed in the process of literary translation, understanding its connotative meanings, and finding ways to reflect

